



**TOG'AY MURODNING "OYDINDA YURGAN ODAMLAR"
ASARIDA QO'LLANGAN NIKOH MAROSIMIGA OID
MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

JO'RAYEVA GULHAYO

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
61-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5528392>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-sentabr 2021
Ma'qullandi: 20-sentabr 2021
Chop etildi: 25-sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

*lingvokulturologiya,
frazologizm, paremiologik
fond, pragmatika, etnos,
majoz.*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek yozuvchisi Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asaridagi nikoh marosimi urf-odatlari bilan bog'liq maqollar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan.

Xalqimiz "So'z ko'rki – maqol", – deb bejiz aytmagan, albatta. Chunki maqol – xalqning asr-asrlar mobaynida sayqallana-sayqallana, eng ma'qul va maqbul shaklga kelgan ifoda turi. Shuning uchun adabiy janrlar ichida til va uslub jihatidan maqoldan puxta-pishiroq bir tur yo'q. Bu janrda so'zlar nafaqat aytilmoqchi bo'lgan fikrni bayon qiladi, balki, maqolni eshitgan, yo o'qigan odamni o'ylantiradi, hissiyotiga ta'sir qiladi. Ba'zida maqollariga qarab shu xalq tilining kuch-quvvatiga baho berish mumkin. Bu jihatdan o'zbek xalq maqollari ham hech bir xalq maqollaridan qolishmaydi. Bu fikrni mazkur ifoda turining bizdagi miqdoriga qarab ham, sifatiga qarab ham baralla aytish mumkin. Frazologizmlar, xususan, maqollarsiz nutq yo'q. Har birimiz gapimizning yanada ta'sirchanroq chiqishini o'ylab, iloji boricha, nutqimizni maqol bilan bezaymiz.

Jahon tilshunosligida maqollarning lisoniy mavqeyi, shakllanish manbalari, etimologiyasini ochib berish, ularning muayyan bir xalq hayoti, dunyoqarashi, an'analari, urf-odatlari bilan bog'liqligini ko'rsatish va bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilmoqda. Natijada paremiologik birlik sifatida maqolning nafaqat folklorshunoslik ilmi uchun, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham turli vazifalarni bajarishi, struktur-diskursiv jihatlarini, mental xususiyatlari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Ayni paytda mazkur lisoniy birliklarni kognitiv, psixologik, lingvomadaniy aspektlarda tadqiq etish, ularning struktur-semantik, badiiy-estetik jihatlarini o'rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar dolzarbligini saqlab kelmoqda.



O'zbek tilshunosligidagi so'nggi yillar, ya'ni milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek adabiy tilini chuqur egallashni; fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Shoir va yozuvchi, notiq va fasih, qari va yosh borki, aytilayotgan fikrini asoslamoqchi yoki mustahkamlamoqchi bo'lsa, albatta maqolga murojaat qiladi. Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hech bir vositasi almashtira olmaydi yoki maqol darajasida asoslab berolmaydi.

Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish maqsadida qo'llanilishi mumkin.

Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va h.k. bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi.

Ko'rinadiki, maqollar va hikmatli so'zlar xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba asosida to'plagan ma'naviy meros hisoblanadi. Ularda ota-bobolarimiz

bosib o'tgan yo'lni, kechirgan turmushlarini, shodliklarini va chekkan azob, uqubatlarini, teran mazmunli pand-nasihah va o'gitlarini, ma'naviy boyligimiz hisoblangan rasm-rusum, urf-odat va an'analarini ko'ramiz. Erkin Vohidov so'zlari bilan aytganda, odamlar boshqalarni o'ylab buloq ko'zini ochadilar, daraxt ekadilar, boshqalar yiqilmasin deb, o'zlari tushib ketgan chuqurni tekislab yo tayoq suyab qo'yadilar. Mendan keyin kelgan avlod tashnalik azobini ko'rmasinlar, ochlikdan, oftob tig'idan qiynalmasinlar, men yiqilgan chuqurlarga ular ham yiqilmasinlar, deya shunday qiladilar. Bobolar hikmati ana o'sha buloq, ana o'sha daraxt, ana o'sha tayoqdir. ...Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir.¹

Darhaqiqat, maqol va matallarda xalqimizning asriy kechmishlari, qadriyatlarimiz durdonalari namoyon bo'ladi. Ota-bobolarimiz azal-azaldan nikoh masalasiga jiddiy qaragan. Ikki yoshning oilasi, nasl-nasabi, salomatligi, odob-axloqi qurilajak oilaning poydevorini tashkil etadi. Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temur farzandlari va nevaralariga umr yo'ldoshi talashda o'ta e'tiborli bo'lganligini ularning salomatligi va nasl-nasabini puxta tekshirganidan bilamiz. Xuddi shu an'ana **Aslini bilmay so'z demaslar, Naslini bilmay qiz bermaslar** matalida o'z ifodasini topgan:

"Eson qassobni haminqadar eladi. Keyin maqsadga o'tdi.

¹ Bu haqida qarang. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati.

–T.: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. 5-bet.



- Singlingning boshiga baxt qushi qo'rib turibdi, qassob, uchirib yubormasang bo'ldi, - dedi.

- Aslini bilmay, so'z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar, -dedi qassob"².

Insonning boshiga yozuvchi aytgan baxt qushi bir marta qo'nadi. Dono xalqimiz yaxshi oiladan, nasl-nasabi pokiza, sog'lom kishi boshqa xonadon farzandini so'rasa, yaxshi ishni ishni orqaga surmaslikni, hatto tengi chiqsa, tekin berish kerakligini nazarda tutib, **chiroyi borida, chinorini topish kerakligini** uqtiradi:

- "Joyi chiqib turibdi, xo'p deya ber. Qoplon ikki yelkasiga uy tiksa bo'ladigan yigit.
- Men undaychikin odamni bilmayman...
- Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma. Chiroying borida chinoringni top!"³

Ma'lumki, chinor – abadiylik va qudratli tayanch ramzi. Ushbu maqol vaqtning g'animat bilishga, yoshlikda, husn-jamolga to'lishgan paytda aql-hushni yig'ishtirib olib, bir umr chinordek tayanch bo'lishga arziydigan umr yo'ldoshni topishga chorlovchi nasihat bo'lib, gender jihatdan xususiylikka ega. Xuddi shu nasihatni xalqimiy yigitlarga **"Bo'laringda bo'lib o't, Bo'z yo'rg'aday yelib o't"** ("Umr o'tyapti. Bo'laringda bo'lib o't, Bo'z yo'rg'aday yelib o't"⁴) tarzida bayon qiladi. Bu maqol kuch-quvvatga to'lgan, omadi kelib, ishi yurishgan paytda ezgu ishlarni qilib qolishga ulgurish, bunday vaqtning g'animat bilib, behuda o'tkazib yubormaslik kerakligini uqtiradi.

Umrning eng gullagan chog'i, yoshlik xotiralarining eng ko'rkami – bu yangi hayot bo'sag'asida bo'lgan, balog'at yoshiga yetib, kimgadir umrini baxshida qilmoqqa tayyor

bo'lgan palladir desak, mubolag'a qilmaymiz. Ma'lumki, xalqimiz bu onlarni to'y marosimi, go'zal an'ana-yu, milliy urf-odatlar bilan yanaga ko'rkamlashtiradi. To'y marosimidagi chiroyli odatlarimizdan biri nikoh o'qilayotganda kelindan vakil so'rash odatidir. Vakil bo'lg'usi kelindan tanmahramlikka roziligini so'raganda qiz bola uyatdan, ibo qilganligidan roziligini oshkor qilolmaydi. Shunday holatda uning roziligi sukut saqlaganidan bilinadi: "Yanga bo'lmish kenjasini Oymomoga berdi. – Bo'ldi, **sukut alomati - rizo**, - dedi"⁵.

Sovchilikka borishdan tortib nikoh oqshomiga qadar qilinajak betakror urf-odatlarimiz borki, xalqimiz ularni madaniyat darajasiga ko'targan. Tog'ay Murod shu udumlarimizdan ayrimlarini asarida bayon etadi. Masalan, non sindirish, qalin aytish, fotiha qilish, to'ylik yuborish, To'qqiz marosimi, Toboq keldi, Oyoq bosish, It irillar, Kampir o'ldi, Soch siypatar, Qo'l ushlatar, Oyna ko'rsatar kabilar shunday rasm-rusumlarimizdandir. Yana bir go'zal odatimiz borki, bu- to'y bo'layotgan xonadonga qarindoshlar va qo'ni qo'shnilarning moliyaviy va ma'naviy yordam qilishlari. **"To'yniki to'yda qaytsin"**⁶, -deydi xalqimiz. Darhaqiqat, to'y har bir ota-onaning farzandi iqboli, baxti kabi orzusidir. Farzand tug'ilibdiki, uning nikoh to'ylariga hammamiz yetaylik, - deya duo qilinadi. Xayrli duolar ortidan bir kuni to'y qilinar ekan, shu muborak kunda jami yaqinlar o'zining topgan-tutganidan to'ychilarga hadya tariqasida yordam ham qilishadi, kam-ko'stlariga qarashadi. Bu xalqimizning betakror udumlaridan sanadi. Hadyalar taqdim etilarkan, o'zlari ham to'y

² Tog'ay Murod. O'sha asar, 8-bet.

³ Tog'ay Murod. O'sha asar, 15-bet.

⁴ Tog'ay Murod. O'sha asar, 47-bet.

⁵ Tog'ay Murod. O'sha asar, 15-bet.

⁶ Tog'ay Murod. O'sha asar, 17-bet.



qilishlarini, qilgan yordamlari o'sha kunda o'zlariga qaytishini orzu qilib, Allohdan so'rashadi.

Ayniqsa, to'y yoki boshqa ma'rakalarda qo'shnilarning bir-biriga qiladigan yordami madaniy qadriyatlarimiz ulug'ligidan dalolat beradi: "...Kelin o'ng taraf hamsoyaso ot yetakladi. **Yon qo'shnim - jon qo'shnim bo'ldi.** Ot ostonadan hatladi. Kelin uzatildi".⁷ Xalqimizda qo'shnichilik ham o'ziga xos qadriyat hisoblanadi. Qo'shnilar yaxshiyomon kunlarda bir-birlaiga hamdam va hamdard bo'ladilar. Shu sabab ham "Uzoqdagi qarindoshdan - yaqindagi qo'shni yaxshi", - deyishadi. Hadislarda ham qo'shnichilik qadriyatlari e'zozlanadi, qo'shnilarga mehr-muruvvat ko'rsatishga chaqiriladi. Taomilga ko'ra, qo'shnilar vaqti-vaqti bilan, ayniqsa, tansiq taom qilingan kuni, bir-birlarinikiga osh-non olib chiqib, bir-birlarini siylashadi. "Qo'shnida pishar, Bizga ham tushar" matali ana shu an'ana ta'sirida vujudga kelgan. Qo'shni qo'shnini hurmat qilishi, yaxshi amallarda bir-birlaridan ta'lim olishlari ham hikmatlarda uqtiriladi: "Qo'shning qudug'iga tupurma, Oxir bir kun suv ichasan", "Kiyiming kir bo'lsa, Qo'shning borida yuvma", "Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni qis, Oqsoq bo'lsa, lang bo'l", "Qo'shni qo'shnidan ta'lim olar, Mulla mulladan ilm olar", "Qo'shni qo'shnidan erta turishni o'rganadi". Diniy e'tiqodimizga ko'ra shakllangan "Qiyomat kun - qo'shnidan" matali ham diqqatga sazovor. Rivoyatlarga ko'ra, qiyomat kuni jannati qo'shni do'zaxi qo'shniga shafatchi bo'lib, uni xudodan tilab olib, o'zi bilan birga

jannatga olib kirarkan. Demakki, bu hikmatlarning barchasi, qo'shnichilik - do'stlik, hamjihatlik, ittifoqlikni ulug'laydi, kishilarni shunga da'vat etadi. Bobolarimiz bejizga "Hovli olma, Qo'shni ol" deyishmagan!

Qiz bolani palaxmonning toshiga o'xshatadi xalqimiz, qayerga borib tushishini bilmaydi. Uning uchun keyinchalik ota uyi emas, yor uyi haqiqiy uy, mangu makon bo'ladi. Turmush qurgach, yorining uyidan panoh, baxt topadi. Ammo tug'ilib voyaga yetgan, bolaligining bebahodamlari o'tgan ota uyini tashlab yotxonadonga yo'l olish har bir qizning ko'zlaridan shashqator yoshlarni oqirmay qo'ymaydi. Ota makonni tark etish og'irligi sabab "**O'z uying - o'lan to'shaging**" ("Kelin yig'i boshladi: - Uvvv-uuvv-uuvv...Yig'ini o'z uyi - o'lan to'shagini tark etajagidan, xesh-aqrabolaridan olislab ketajagidan desak-da bo'ladi")⁸ deyishadi. O'tmishda ba'zilar qovg'a(giyoh, o't, o'lan)dab bo'yraga o'xshatib to'qib, undan ko'rpa-ko'rpacha o'rnida foydalanib, taglariga to'shab o'tirardilar. Mazkur maqol bilan "Birovning uyida, yurtida yumshoq to'shakda o'tirganingdan ko'ra, tap-taqir o'lan to'shakda o'tirsang ham o'z uying yaxshi", demoqchi bo'lganlar.⁹ Har bir insonga o'z uy-joyi, o'z ona yurti qimmatli. Buni "O'z uyimning xushligi, Oyoq-qo'limning bo'shligi", "O'z yurtiingning qadri o'zga yurtda bilinadi", "O'zga yurtda sulton bo'lguncha, O'z yurtiingda cho'pon bo'l", "**Olisdagi palovdan yaqindagi sho'rva**

⁷ Tog'ay Murod. O'sha asar, 37-bet.

⁸ Tog'ay Murod. O'sha asar, 37-bet.

⁹ Bu haqida qarang. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. - T.: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. 464-bet.



yaxshi¹⁰, “Bir yaxshining qadrin bilmas, bir yomonga tushmaguncha, Shohlar yurtning qadrin bilmas, yurtdan yurtga oshmaguncha”, “Tuqqan yerda tug’ing tik” kabi maqol va matallar ham isbotlaydi. Bu hikmatlar insonni vatanparvarlikka chorlaydi.

O‘zbek mentalitetida nikoh bilan tuzilgan oilaning ko‘p hollarda saqlab qolinishiga farzandlar tug‘ilishi sabab bo‘ladi. Chaqaloq dunyoga kelmagan oilalarning aksariyati shu sabab bilan buziladi. Shu sababdan **“Bolali uy xandon, Bolasiz uy zindon”**¹¹ deyishadi.

Farzand - Alloh insonga ato etgan ne‘matlarning eng go‘zali, oilaning quvonchi, boyligi, ota-onaning tayanchi. Farzandning dunyoga kelishi nafaqat ota-onani, balki jamiki qarindoshlar, yor-u do‘stlar, qo‘ni-qo‘shnilar, tanish-bilishlarni ham olam-olam quvonch-u shodlikka to‘ldiradi. Bu ko‘plab maqol va matallarda o‘z aksini topgan: “Bolali uy – bozor, Bolasiz uy – mozor”, “Bolali uy – guliston, Bolasiz uy – zimiston”, “Bolali uy – bozor, Shovqini ko‘ngil yozar”, “Tog‘ning ko‘rki lola bilan, Uyning ko‘rki bola bilan”, “Bolasi ko‘p boy bo‘lur”, “Bolasi ko‘p uyda kunda to‘y”.

Xalqimiz bolajon xalq. Oila qurayotgan yoshlarga ham farzand so‘rab, oilasi, baxti to‘kin bo‘lishini so‘rab duo qiladi, “Qozon to‘la osh bo‘lsin, Yostiqlik to‘la bosh bo‘lsin” deya, “Uvali-juvali, baxtli-taxtli,

ayolmand(serfarzand) bo‘lsin deya olqishlaydi. Farzand so‘raganda ham o‘g‘il, ham qiz farzand so‘rashadi. Zero, **“O‘g‘li borning o‘rni bor, Qizi borning izi bor”**¹².

Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o‘rin olgan javohir sandig‘i deyish mumkin. Ma‘lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o‘rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o‘rganish endi boshlanmoqda. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, kesatish, yupatish, o‘git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo‘lavermaydi. Bu o‘rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma‘naviyati va h.k. bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan maqol va matallar o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

Xullas, frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o‘zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi “hikmatlar xazinasini” bo‘lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

References:

1. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2019.

¹⁰ Tog‘ay Murod. O‘sha asar, 125-bet.

¹¹ Tog‘ay Murod. O‘sha asar, 16-bet.

¹² Tog‘ay Murod. O‘sha asar, 47-bet.



2. Маҳмудов Н. “Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари ни излаб...” // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. № 5.
3. Mansurov A. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. T.: “Toshkent islom universiteti”, 2007. 624 bet.
4. Murodov Tog’ay. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. 192 bet.
5. Rahmatullayev Sh. Frazеologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – T.: Fan, 1955.
6. Rahmatullayev Sh. O’zbek izohli frazeologik lug’ati. T.: “O’qituvchi”, 1978.
7. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug’ati. Toshkent, 2015. 35-bet.
8. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
9. Xudoyberganova D. President nomlarning antroposentrik talqini.//O’zbek tili va adabiyoti jurnali. 2015-yil 2-son. 41-bet.
10. O’zbek tilining izohli lug’ati. 5-jild. – T.:“O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 436-bet.
11. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: ЎМЭ, 2001. –Б.263.
12. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O’zbek maqollarining izohli lug’ati. –T.: O’zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. 491bet.
13. www.natlib.uz
14. www.dissertant.uz